

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA BLEMISH®

Preparatning savdo nomi: Blemish®

Ta'sir etuvchi modda (XPN): adapalen va klindamitsin

Dori shakli: sirtga qo'llash uchun gel

Tarkibi:

Har gramm gel quyidagilarni saqlaydi:

faol moddalar: adapalen – 1 mg; klindamitsin fosfat – 11,882 mg, klindamitsinga ekvivalent – 10 mg;

yordamchi moddalar: karbomer 980, polisorb -80, propilenglikol, polietilenglikol 400, metilparaben, fenoksietanol, dinatriy edetat, natriy gidroksid va tozalangan suv.

Ta'rifi: oq rangdan deyarli oq ranggacha bo'lgan bir turdagi yarim tiniq gel

Farmakoterapevtik guruhi: Dermatologiyada qo'llaniladigan preparatlar. Xusunbuzar toshmalarini davolash uchun preparatlar. Sirtga qo'llash uchun xusunbuzar toshmalarini davolash uchun preparatlar. Xusunbuzar toshmalarini davolash uchun retinoidlar. Majmuaviy adapalen.

ATX kodi: D10AD53

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Adapalen naftoy kislotasining hosilasi bo'lib, hujayra differentsiatsiyasi va keratinizatsiya jarayonlarini, shuningdek akne rivojlanishida asosiy patogenetik bog'liqlikni hosil qiladigan teridagi yallig'lanish jarayonlarini modullaydigan retinoid modda hisoblanadi. Adapalen hujayra yadrosidagi retinoid retseptorlari bilan bog'lanadi va shu orqali follikulalar epitelial hujayralarini normal differensiyalanishiga yordam beradi, bu esa mikrokomedonlarni hosil bo'lishi kamayishiga olib keladi va akne rivojlanishi oldini oladi, teri butunligining saqlashga yordamlashadi.

Dori vositasining terapevtik samarasi, odatda, davolash boshlangandan so'ng 8-12 hafta davomida namoyon bo'ladi. Adapalen gel shaklida qo'llanilganda dori vositasining teri orqali qonga so'rilish darajasi juda past.

Klindamitsin fosfat yarim sintetik antibiotik bo'lib, u 50S ribosom sub-birliklari bilan bog'lanish orqali bakterial oqsillar sintezini sekinlashtiruvchi modda sifatida ta'sir ko'rsatadi va peptid zanjirlari hosil bo'lish jarayonini susaytiradi. Klindamitsinni minimal ingibitsiya qiluvchi konsentratsiya 0,4 mkg/ml bo'lgan tekshiriluvchi barcha *Ropionibacterium aspes* ni ingibitsiya qiladi. Klindamitsin va eritromitsin o'rtasida kesishgan rezistentlik aniqlangan.

Farmakokinetikasi

Tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Qo'llanilishi

Husnbuzar toshmalarini (oddiy husnbuzarlar)ni mahalliy davolashda qo'llaniladi.

Qo'llash usuli va dozalari

Toza quruq terining toshma toshgan sohalarga sutkada bir marta kechqurun gelni yupqa qatlam qilib surtiladi.

Davolashning birinchi haftasida faol moddani yallig'lanish o'chog'iga ta'siri tufayli ilgari ko'rinmagan husnbuzar toshmalarini zo'rayishi kuzatish mumkin. Bunday holatda, davolashni to'xtatilmalik, terapevtik samara davolash boshlangandan keyin 8-12 hafta davomida kuzatiladi.

Bolalar: 12 yoshdan katta bolalarda qo'llanadi.

Nojo'ya ta'sirlari

Dori vositasi qo'llangandan so'ng shu zahoti terining gel surtilgan sohada qizarishi, qipiqilanish, teri qurishi, qichishish va achitish keyinroq o'tib ketadi. Allergik reaksiyalar, fotosezuvchanlik reaksiyasi, akne, uvishish hissi, grammanfiy follikulit, me'da-ichak yo'li tomonidan buzilishlar, qorinda og'riq, allergik toshma, terining yuqori yog'liligi, kontaktli dermatit, ko'zlarni achishishi, shuningdek diareya, qon aralash diareya va kolitlar (shu jumladan, soxta membranoz koliti) kabi nojo'ya ta'sirlari kuzatilishi mumkin.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Adapalen, klindamitsinga yoki dori vositasining boshqa tarkibiy moddalariga, shuningdek linkomitsinga yuqori sezuvchanlik. Enterit, yarali kolit, antibiotiklar chaqirgan kolit (anamnezda), Kron kasalligida qo'llash mumkin emas. 12 yoshdan kichik bolalarga qo'llanilmaydi.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Ayrim patsientlarda mahalliy ta'sirlovchi samara kuzatilishi mumkinligi tufayli sirtga qo'llash uchun boshqa potensial ta'sirlovchi preparatlar bilan birga qo'llanishi terida nojo'ya ta'sirlar paydo bo'lish xavfini oshiradi.

Tarkibida oltingugurt, rezorsin yoki salitsil kislotasi saqllovchi dori vositalar bilan gel qo'llanganda ehtiyotkorlikka rioya qilish kerak.

Geldan boshqa dori vositalari bilan birga qo'llash zarur bo'lgan hollarda, geldan kuniga bir marta kechqurun, boshqa dori vositalaridan esa – ertalab qo'llash lozim.

Klindamitsin nerv-mushak uzatilishini bloklash xususiyatiga ega, bu xuddi shunday analogik xususiyatli boshqa dori vositalarining samaralarini kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu uchun uni bunday preparatlarini qabul qilayotgan patsientlarda ehtiyotkorlik bilan qo'llash kerak. Klindamitsin va linkomitsin o'rtasida kesishgan rezistentlik mavjud. Shuningdek, eritromitsin va klindamitsin o'rtasida o'zaro qarama-qarshi ta'sir kuzatilgan.

Maxsus ko'rsatmalar

Preparat faqat sirtga qo'llaniladi.

Gelni ko'z, lab, burun sohasiga va ko'z atrofi terisiga, shuningdek shilliq qavatlarga tushishiga yo'l qo'ymang. Gel bu sohalarga tasodifan tushganda, iliq suv bilan yaxshilab yuvib tashlang.

Gelni terining oftob nuridan kuygan, kesilgan va boshqa terining ekzematoz shikastlangan sohalariga surtmang.

Davolanish vaqtida, terining yuqori sezuvchanligi va oftob eritemasi rivojlanish yuqori xavfi tufayli quyosh nuri va ultrabinafsha nurlari, shu jumladan lampalarning haddan tashqari ta'siriga yo'l qo'ymaslik kerak.

Davolanish vaqtida terini quritadigan kosmetik vositalardan (abraziv yoki davolovchi sovun, teri tozalovchi vositalar, haddan tashqari o'zida ko'p miqdorda spirt, tortuvchi vositalar, soqol olish uchun va keyin ishlatiladigan kremlar yoki losonlar, dezinfeksiya qiluvchi vositalaridan) foydalanish terini qo'zg'alish ta'siriga olib kelishi mumkin.

Preparatning har qanday komponentiga allergik reaksiyalar paydo bo'lgan hollarda, davolashni to'xtatish va tegishli choralarni qo'llash kerak.

Klindamitsin mahalliy qo'llanganda teri yuzasidan antibiotiklar so'rilishi yuz beradi. Klindamitsin sirtga va tizimli qo'llanganda diareya, qon aralash diareya va kolitlar (shu jumladan, soxta membranoz koliti) to'g'risida xabar berilgan.

Tadqiqotlarni ko'rsatishicha, antibiotiklardan foydalanish bilan bog'liq kolitning asosiy sababi klostridiyalar tomonidan ishlab chiqariladigan toksin hisoblanadi. Odatda, kolit davolanishi qiyin bo'lgan og'ir kechuvchi diareya va me'dani og'ir sanchiqlari bilan xarakterlanadi hamda qon va shilliq sekretiysi bilan birga kechishi mumkin. Soxtamembranoz koliti endoskopik tekshiruvida aniqlanishi mumkin.

Najasda *Clostridium difficile* mavjudligi va *C. difficile* toksini mavjudligi yuzasidan axlat tahlili ushbu kasallikni tashhis qo'yishda yordam berishi mumkin.

Kuchli diareyada preparatni qo'llashni to'xtatish kerak. Og'ir diareya holatlarida aniq tashxis qo'yish uchun yo'g'on ichakning endoskopik tekshiruvi ehtimoli ko'rib chiqilishi kerak.

Opiatlar va atropinli difenoksilat kabi peristaltikani bostiradigan preparatlar qo'llanganda ushbu holatni uzaytirishi va yoki kuchaytirishi mumkin. Antibiotiklar qabul qilish bilan bog'liq *Clostridium difficile* tomonidan qo'zg'atiladigan soxta membranoz kolitini davolashda vankomitsin samaradorligi aniqlangan. Katta yoshdagi patsientlar uchun vankomitsinning odatdagi dozasi 7-10 kun mobaynida peroral, 3-4 marta qabul qilishga bo'lingan 500 mg dan 2 g gacha miqdorni tashkil etadi. Xolestiramin yoki kolestipol qatronlari *in vitro* vankomitsinni bog'laydi. Qatron va vankomitsin bir vaqtda qo'llanishi zarur hollarda, ushbu dori vositalarining har biridan turli vaqtda foydalanish tavsiya etiladi.

Diareya, qon aralash diareya va soxtamembranoz koliti potensial rivojlanishini hisobga olib, shifokor boshqa preparatlardan foydalanish kerakligi yoki kerak emasligini hal qilishi kerak ("Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar" va "Nojo'ya ta'sirlar" bo'limiga qarang).

Preparatni ko'z va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatiga tushishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Gel surtilgandan so'ng qo'llarni yaxshilab yuvish kerak. Sezuvchan yuzalar (ko'z, teridagi ko'karishlar, shilliq qavatlar)ga tasodifan tushganda, ushbu sohani sovuq suv bilan yaxshilab yuvish kerak.

Klindamitsin peroral va parenteral qo'llanishi kuchli kolit rivojlanishiga sabab bo'lgan, bu o'lim holatiga olib kelishi mumkin. Atopiyasi bo'lgan patsientlarda sirtga qo'llanish uchun klindamitsin fosfat dozasi tanlashda ehtiyotkorlikka rioya etilishi kerak.

Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanishi

Homilador ayollarda preparati qo'llash xavfsizligi yuzasidan tegishli klinik sinovlar o'tkazilmaganligi tufayli, homiladorlik davrida geldan foydalanish mumkin emas.

Laktatsiya davrida preparatini qo'llash mumkin emas.

Transport vositalari va boshqa xavfli mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Ta'sir ko'rsatmaydi.

Dozani oshirib yuborilishi

Gel haddan tashqari ko'p miqdorda surtilganda teri qizarishi va qipiqilanishi mumkin.

Davolash simptomatik usulda amalga oshiriladi.

Chiqarilish shakli

15 g gel laminitsiya qilingan tubada, 1 tuba tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnoma bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti

Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.

Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Muzlatilmasin.

Yaroqlilik muddati

3 yil.

Preparatni yaroqlilik muddati o'tgach qo'llanilmasin.

Dorixonadan berish tartibi

Retseptsiz.

Ishlab chiqaruvchi

Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Ishlab chiqarish manzili

SP-289(A), RIICO Industrial Area, Chopanki, Bhiwadi, Dist. Alwar (Rajasthan) Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositalarining sifati bo'yicha e'tirozlarni (takliflarni) qabul qiluvchi tashkilotning nomi va manzili

"BARAKA DORI FARM" MCHJ XK

100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Xalqa Yo'li ko'chasi, 91-uy.

Tel.: +998 (78) 150 97 97; faks: +998 (78) 1509787

Mob.: +998 (93) 388 87 82;

E-mail: pv@kusum.uz

Web-sayt: kusum.uz